

Markaziy bankning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT

I. Umumiy ma'lumot.

Markaziy bank boshqaruvining 2022-yil 24-sentyabrdagi 21/8-sonli qarori bilan «Markaziy bank tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti» tasdiqlangan.

Shuningdek, Markaziy bankning **markaziy apparat, hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalarida** tizim xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan **4 tadan aloqa kanallari** (*rasmiiy veb-sayt, elektron pochta, telegramm bot, ishonch telefoni*) ishga tushirilgan.

2025-yil davomida, Markaziy bankning **markaziy apparat, hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalari** xodimlarining **korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali** Markaziy bank tizimi xodimlarining korrupsiya bilan bog'liq xatti-harakatlari yuzasidan **murojaatlar kelib tushmagan**.

Markaziy bankning markaziy apparat, hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalarining aloqa kanallari orqali **korrupsiyaviy xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lmagan** jami **13 ta**, shundan, ularning **5 tasi** telegram messenjeri, **6 tasi** rasmiy veb sayt va **2 tasi** boshqa manbalar (portal va og'zaki/yozma) orqali kelib tushgan.

Murojaatlar hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahri **(3)**, Surxondaryo **(3)**, Navoiy **(1)**, Andijon **(1)**, Sirdaryo **(1)**, Farg'ona **(1)**, Xorazm **(1)**, Jizzax **(1)**, Toshkent **(1)** viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari.

Markaziy bank aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarning **6 tasi** iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, **2 tasi** kiberhujum, **1 tasi** imtiyozli shartlarda kredit ajratish, **1 tasi** bank operatsiyalari yuzasidan ma'lumot olish, **1 tasi** ishga joylashish va **2 tasi** boshqa yo'nalishlarda kelib tushgan bo'lib, mazkur murojaatlar yuzasidan tegishli tarkibiy tuzilmalar tomonidan tushuntirishlar berilgan holda belgilangan muddatlarda javob xatlari yuborilgan.

III. Minimallashtirish choralari.

Markaziy bank tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida kelib tushgan murojaatlar «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonun hamda Markaziy bankning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Shu bilan birga, Markaziy bank boshqaruvining 2023-yil 25-martdagi 8/13-sonli qarori bilan **«Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida»gi Tartib** tasdiqlangan.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan tekshirish va o'rganishlar jarayonlarini tartibga solish maqsadida, Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 18-noyabrdagi 31/8-sonli qarori bilan **«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'tkaziladigan tekshirish va o'rganishlarda xodimlarning majburiy xizmat qoidalari»** tasdiqlangan. Mazkur hujjat orqali tekshirish va o'rganishga jalb etilgan xodimlarga **manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, sovg'a va mehmondo'stlik belgilarini** qabul qilmaslik yuzasidan majburiyatlar yuklatilgan. Bunda har bir tekshirish va o'rganish jarayoniga jalb etilgan xodimlar ushbu **Qoidalarda** belgilangan majburiyatlar bilan tanishgan holda jalb qilinishi ta'minlangan. Shu bilan birga, tekshirish va o'rganish tashabbuskori bo'lgan tarkbiy tuzilmalar tomonidan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida, ichki hujjatlarni (*buyruq, farmoyish*) Komplaens-nazorat xizmati bilan kelishish tartibi joriy qilingan.

Komplayens-nazorat
xizmati boshlig'i

V.Xamrakulov

Ijro apparati rahbari

O.Ernazarov

